

The Unwritten Khirad

Beyond knowledge, into wisdom

Mualliflar uchun
qoʻllanma



Mualliflar uchun qo'llanma

Beyond knowledge, into wisdom

TUK Academic Journal (The Unwritten Khirad) — sport ilmi sohasidagi xalqaro, taqrizlanadigan ilmiy jurnal. Tahririyat Portu (Portugaliya) shahrida joylashgan.

Ushbu qo'llanma maqola yuborishning barcha talablarini belgilaydi. Qo'llanmaga mos kelmagan maqolalar taqrizga qabul qilinmaydi va muallifga qaytariladi.

OXIRGI YANGILANISH

2026-yil iyul

SAYT

tukjournal.com

JURNAL

journal.tukjournal.com

ELEKTRON POCHTA

tukacademicjournal@gmail.com

TELEGRAM

@tukjournal

1

Umumiy qoidalar

- 1.1. Maqola mavzusi jurnalning yo'nalishlaridan biriga mos kelishi shart. To'liq ro'yxat — 8-bo'limda.
- 1.2. Maqola avval boshqa joyda nashr etilmagan va ayni paytda boshqa jurnalda ko'rib chiqilmayotgan bo'lishi kerak.
- 1.3. Maqolani yuborish orqali muallif ushbu qo'llanmaning barcha shartlarini, jumladan etika talablarini (6-bo'lim), qabul qilgan hisoblanadi.
- 1.4. Birinchi son uchun yuborish va nashr etish to'lovlari yo'q.

2

Maqola tuzilmasi

Maqola quyidagi qismlardan iborat bo'ladi. Tartib o'zgartirilmaydi.

2.1. Sarlavha

Qisqa va aniq bo'lsin, tadqiqot yo'nalishini aks ettirsin.

Ikki tilda beriladi: **maqola tilida va ingliz tilida**. Agar maqola ingliz tilida yozilgan bo'lsa — faqat inglizcha yetarli.

2.2. Muallif haqida ma'lumot

- To'liq ism-sharif
- Ish joyi va lavozimi (affiliatsiya)
- Ilmiy daraja va unvon — agar bo'lsa
- Yozishmalar uchun elektron pochta manzili
- ORCID iD — tadqiqotchining xalqaro raqamli identifikatori (bepul, orcid.org saytida olinadi). Bo'lsa — ko'rsating.

Bir necha muallif bo'lsa, yozishmalar uchun mas'ul muallif alohida ko'rsatiladi.

2.3. Annotatsiya

Hajmi 150–250 so'z. Ikki tilda: maqola tilida va ingliz tilida.

Annotatsiya quyidagilarni qamrab olsin: tadqiqot muammosi va uning dolzarbligi; qo'llanilgan metodologiya; asosiy natijalar; muallifning ilmiy va amaliy hissi.

Annotatsiyada manba havolalari, jadval va qisqartmalar ishlatilmaydi.

2.4. Kalit so'zlar

5–7 ta. Ikki tilda: maqola tilida va ingliz tilida.

Kalit so'zlar sarlavha va annotatsiyada uchramagan tushunchalarni qamrab olsin — shunda maqola qidiruvda kengroq topiladi. Sarlavhadagi so'zlarni takrorlash foyda bermaydi.

2.5. Kirish

Tadqiqot muammosi, maqsadi va vazifalari. Mavzuning tanlanish sababi, dolzarbligi va ilmiy ahamiyati.

2.6. Adabiyotlar sharhi

Mavzu bo'yicha mavjud ilmiy manzaraning tahlili. Sharh tadqiqot uchun asos yaratadi va tadqiqot savolini aniqlashtiradi. Asosan so'nggi yillarda chop etilgan ilmiy maqolalarga tayanish tavsiya etiladi.

2.7. Tadqiqot metodologiyasi

Bu bo'lim natijalarning ishonchliligini asoslaydi. Quyidagilar bayon qilinadi:

- tadqiqot yondashuvi (deduktiv yoki induktiv)
- tadqiqot dizayni
- ma'lumot yig'ish usullari
- namuna (sampling) va uni tanlash asosi
- birlamchi yoki ikkilamchi manbalardan foydalanish
- tadqiqot strategiyasi (kuzatuv, eksperiment, holat tahlili, so'rovnoma, arxiv tadqiqoti va boshqalar)
- tadqiqot etikasi masalalari (6-bo'limga qarang)

2.8. Natijalar

Metodologiyada belgilangan usullar yordamida olingan ma'lumotlar tahlili. Bu bo'lim faqat natijalarni bayon qiladi — talqin keyingi bo'limda beriladi.

2.9. Muhokama

- natijalarning talqini
- oldingi tadqiqotlar bilan taqqoslash
- tadqiqotning cheklovlari

2.10. Xulosa va tavsiyalar

Maqsad va vazifalarning bajarilishi. Asosiy natijalarning qisqacha bayoni, amaliy tavsiyalar va kelajakdagi tadqiqot yo'nalishlari.

2.11. Manbalar

Barcha manbalar ketma-ket raqamlanadi: [1], [2], [3].

Kitob uchun: muallifning to'liq ismi, kitob nomi, nashr joyi, nashriyot nomi, yil, sahifa raqamlari.

Maqola uchun: muallifning to'liq ismi, maqola nomi, jurnal nomi, nashr yili, son, sahifa raqamlari.

Kamida 15 ta manba. Manbalar matnda havola qilingan bo'lishi shart.

ESLATMA

2.1–2.11 tartibiga rioya qilinmagan maqolalar taqrizga o'tkazilmaydi va muallifga qaytariladi.

3 Texnik rasmiylashtirish

Element	Talab
Shrift	Times New Roman, 14
Qatorlar oralig'i	1,5
Chekka oraliqlari	Har tomondan 2 sm
Hajm	7–10 sahifa (manbalar bilan birga)
Manbalar soni	Kamida 15 ta
Fayl formati	.docx (Microsoft Word)
Alifbo	Lotin yoki kirill — maqola tiliga mos

4 Jadval, diagramma va tasvirlar

4.1. Jadval, diagramma yoki tasvirlar **tavsiya etiladi** — ular maqolaning sifatini oshiradi. Majburiy emas: nazariy, tarixiy yoki falsafiy maqolalarda ular bo'lmashi mumkin.

4.2. Jadval sarlavhasi jadvalning **yuqorisida**, diagramma va tasvir sarlavhasi ularning **ostida** joylashadi.

4.3. Har bir jadval, diagramma va tasvirning manbasi aniq ko'rsatiladi. Muallifning o'z ishi bo'lsa — “Muallif tomonidan tuzilgan” deb yoziladi.

4.4. Boshqa muallifning jadvali yoki tasviri ishlatilsa, mualliflik huquqiga rioya qilish muallifning zimmasida.

5 Tillar

5.1. Maqolalar o'zbek, rus, ingliz, shuningdek boshqa Yevropa va turkiy tillarda qabul qilinadi.

5.2. Maqola asl tilida nashr etiladi — tarjima qilinmaydi.

5.3. Sarlavha, annotatsiya va kalit so'zlar maqola tilida va ingliz tilida beriladi (2.1, 2.3, 2.4). Bu maqolaning xalqaro qidiruvda topilishini ta'minlaydi.

5.4. O'zbek tilidagi maqolalar amaldagi rasmiy o'zbek imlo qoidalariga to'liq muvofiq yozilishi shart. Maxsus harflar to'g'ri va izchil qo'llanilishi kerak.

6

Tadqiqot etikasi

6.1. Original ish

Maqola muallifning o'z ishi bo'lishi kerak. Boshqa manbadan olingan har qanday matn, ma'lumot yoki g'oya havola bilan ko'rsatiladi.

6.2. Insonlar ishtirokidagi tadqiqot

Agar tadqiqotda insonlar ishtirok etgan bo'lsa (so'rovnoma, test, o'lchov, mashg'ulot), muallif maqolada qisqacha bayon qiladi:

- ishtirokchilar tadqiqot maqsadidan xabardor bo'lgani va roziligi olingani (voyaga yetmaganlar bo'lsa — ota-ona yoki vasiy roziligi);
- ishtirokchilarning shaxsi maqolada oshkor qilinmagani.

Agar tadqiqot muassasa yoki etika komissiyasi ruxsati asosida o'tkazilgan bo'lsa, buni ko'rsatish tavsiya etiladi.

6.3. Manfaatlarni to'qnashuvi

Muallif tadqiqot natijalariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan har qanday moliyaviy yoki shaxsiy manfaatni e'lon qiladi. Bunday manfaat bo'lmasa: "Manfaatlarni to'qnashuvi yo'q" deb yoziladi.

6.4. Moliyalashtirish

Tadqiqot grant yoki tashkilot tomonidan moliyalashtirilgan bo'lsa, bu ko'rsatiladi.

6.5. Sun'iy intellektdan foydalanish

Agar maqolani tayyorlashda sun'iy intellekt vositalari ishlatilgan bo'lsa (matn yaratish, tarjima, ma'lumot tahlili, tilni tahrirlash), muallif buni e'lon qiladi: qaysi vosita, qaysi maqsadda.

Sun'iy intellekt muallif bo'la olmaydi — u mualliflar ro'yxatiga kiritilmaydi. Maqolaning butun mazmuni uchun javobgarlik muallifning zimmasida.

6.6. Mualliflar tarkibi

Mualliflar ro'yxatiga faqat tadqiqotga haqiqiy hissa qo'shgan shaxslar kiritiladi.

7

Yuborish va ko'rib chiqish tartibi

7.1. Yuborish. Maqola quyidagi manzillarga yuboriladi: elektron pochta — tukacademicjournal@gmail.com; Telegram — [@tukjournal](https://t.me/tukjournal).

7.2. Dastlabki ko'rik. Tahririyat maqolani jurnal yo'nalishlariga mosligi, ushbu qo'llanmaga rioya qilinishi va originallik nuqtayi nazaridan ko'rib chiqadi. Talablarga javob bermagan maqola taqrizga o'tkazilmasdan qaytariladi.

- 7.3. **Taqriz.** Maqola tahririyat tomonidan ko'rib chiqiladi.
- 7.4. **Qaror.** Muallif quyidagi qarorlardan biri haqida xabar oladi: qabul qilindi; qayta ishlash talab etiladi; rad etildi.
- 7.5. Tahririyat maqolaga mazmunga ta'sir qilmaydigan tahririy tuzatishlar kiritish huquqini saqlab qoladi.

8 Jurnal yo'nalishlari

Jurnal yetti bo'limda nashr etadi, ular 23 ta yo'nalishni qamrab oladi.

Nº	BO'LIM	YO'NALISHLAR
1	Sport fiziologiyasi, nutritsiologiyasi va reabilitatsiyasi	Mashq fiziologiyasi Sport nutritsiologiyasi Sport gigienasi Sport reabilitatsiyasi
2	Sport anatomiyasi, morfologiyasi va biomexanikasi	Sport anatomiyasi Sport morfologiyasi Sport biomexanikasi
3	Jismoniy tarbiya va adaptiv sport	Sport mashg'uloti nazariyasi va metodikasi Jismoniy tarbiya nazariyasi Jismoniy tarbiya va sog'lom turmush tarzi Adaptiv jismoniy faoliyat va sport
4	Sport pedagogikasi, psixologiyasi va falsafasi	Sport pedagogikasi Sport psixologiyasi Sport falsafasi
5	Sport menejmenti, analitikasi va huquqi	Sport menejmenti va marketingi Sport huquqi Sport strategiyasi Sport analitikasi Sport metrologiyasi
6	Sport texnologiyalari va media	Sport texnologiyalari Sport jurnalistikasi
7	Olimpiya va paralimpiya tadqiqotlari	Olimpiya va paralimpiya harakati tarixi Milliy va harakatli o'yinlar

9 Mualliflik huquqi va ochiq kirish

9.1. Jurnal to'liq ochiq kirish (open access) tamoyilida ishlaydi. Barcha maqolalar bepul o'qiladi va yuklab olinadi.

9.2. Mualliflik huquqi muallifda qoladi.

9.3. Maqolalar Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida nashr etiladi. Bu boshqalarga maqoladan foydalanish, tarqatish va undan kelib chiqib ish yaratish imkonini beradi — asl muallif ko'rsatilgan holda.

Ilova. Maqola tuzilmasi namunasi

SARLAVHA (maqola tilida)

TITLE (ingliz tilida)

Muallif haqida ma'lumot

To'liq ism-sharif

Ish joyi, lavozimi

Ilmiy daraja / unvon (bo'lsa)

Elektron pochta

ORCID iD (xalqaro tadqiqotchi identifikatori, bepul — orcid.org)

Annotatsiya (maqola tilida) — 150–250 so'z

Kalit so'zlar (maqola tilida) — 5–7 ta

Abstract (ingliz tilida) — 150–250 so'z

Keywords (ingliz tilida) — 5–7 ta

1. Kirish
2. Adabiyotlar sharhi
3. Tadqiqot metodologiyasi
4. Natijalar
5. Muhokama
6. Xulosa va tavsiyalar

Etika bayonotlari

Manfaatlar to'qnashuvi

Moliyalashtirish

Sun'iy intellektidan foydalanish

Manbalar

[1]

[2]

...

[15]

BOG'LANISH

TUK Academic Journal (The Unwritten Khirad) · Portu, Portugaliya

tukacademicjournal@gmail.com · Telegram [@tukjournal](https://t.me/tukjournal)

tukjournal.com · journal.tukjournal.com